

QARG'ISHNING STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI

Andijon davlat chet tillari instituti

Roman-German va Slovyan tillari fakulteti

Kompyuter lingvistikasi 25 -01guruh talabasi:

Islomova Feruzaxon Vahhobjon qizi

Ilmiy maslahatchi:Kabolova. U.S

Annotatsiya: Ushbu maqolada qarg'ish nima. U insonlarga qanday mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Tarixda bu mavzuda qanday voqealar fikr va mulohazalar keltirilgan. Va buning insonlarga foydasi yki ziyoni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Etsi, Patalogoanatomlar, qarg'ish, Alp tog'lari,

Аннотация: что такое проклятие в этой статье. Каким механизмом он служит людям. О том, какие события в истории происходят на эту тему, высказываются мнения и соображения. И это говорит о пользе или вреде для людей

Ключевые слова: Этси, патологоанатомы, проклятие, Альпы,

Annotation: what is the curse in this article. What mechanism it serves people. In history, opinions and opinions are expressed about what events are happening on this topic. And this speaks of benefit or harm for people.

Keywords: Etsy, pathologists, curse, Alps,

Insoniyat mavjud ekan, u nafaqat yaxshilik, balki yomonlik tilashning ham tushunchasi bilan yashab keladi. Biroq, oddiy g'azabdan aytilgan achchiq so'z bilan, butun bir avlodning taqdiriga ta'sir o'tkazishi aytiladigan kuch – qarg'ish o'rtasida qanday farq bor? Qarg'ish tushunchasi deyarli barcha madaniyatlarning eng qadimgi qatlamlarida mavjud bo'lib, u nafaqat jazo vositasi, balki ba'zan ijtimoiy tartibni saqlashning sirli mexanizmi ham bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi Misr maqbaralarida toshga o'yib yozilgan tahdidlardan tortib, O'rta Osiyo folklorida uchraydigan "yomon ko'z" ta'siriga bo'lgan ishonchgacha – qarg'ish har doim kishilarning ongi va

qo'rquvlarida chuqur o'rin egallagan. Ushbu maqolada biz qarg'ishning tarixiy ildizlarini, turli xalqlarda namoyon bo'lish shakllarini va uning bugungi kundagi inson psixikasiga ta'sirini o'rganamiz. Biz yuqori texnologiyalar olamida yashayotganligimizga qaramasdan ajdodlarimiz kabi ko'z tegishi, sehr-jodu, issiq-sovuq kabi narsalarga ishonamiz. Va tabiiyki, qarg'ish ham mazkur ro'yhatga kirib, diqqatni o'ziga tortadi. Odamlar boshlariga tushgan musibatda o'zlarini ayblamasdan, qandaydir sirli jodu sabab bo'lganligiga ishonadilar. Axir qarg'ishlarning borligi hammaga ayon: buhaqda gazetada yozadilar, televizorda ko'rsatadilar, ularni o'rganadilar. Qarg'ishlar katta aqlli insonlarni ham bir emas, bir necha yuzlab yillardan buyon bezovta qilib kelmoqda. Zamonamiz taraqqiy etganligiga qaramay tasavvuf va g'ayritabiiy kuchlar borligiga hamma ishonadi. Ushbu maqolamizda shunday g'ayritabiiy hodisalar haqida bir necha misollar keltirib o'tamiz

.Men uzoq tarix faklatidan birida ajoyib bir satrlar o'qib qoldim. Bu voqea o'tgan asrning oxirlarida sodir bo'lgan. 1991 yilda Alp tog'lari cho'qqisining Etstal vodiysi hududida alpinistlar muz ichidan odam tanasining qoldiqlarini topib oldilar. Alpinistlar o'lgan odamni tog'larda sodir bo'ladigan qor ko'chkisining qurbonlaridan biri, deb o'yladilar. Qoyachilar odam qoldiqlarini muz tagidan ko'chirib olib, qoida bo'yicha o'likxonaga topshirdilar. Patologoanatomlar– o'likni tekshiruvchi ekspertlar hayratdan qotib qoldilar: bu o'lgan odam suyagining yoshi 5300 yilga teng bo'lib, u Bronza davrida yashaganligi ma'lum bo'ldi.

Aniqlanishicha, bu odam qor ko'chkisining qurboni bo'lmagan. U boshiga urilgan qattiq zarbdan halok bo'lgan, qo'lida esa kremniyli pichoq ushlagan holda qolib ketgan. Olimlar muz asirini Etsi deb nomladilar. Ko'p o'tmay bu sirli topilma bilan to'qnash kelgan barcha odamlar sirli tarzda halok bo'la boshladilar. Masalan, Rayner Xenn, jasadni tekshiruvdan o'tkazgan sud tibbiy eksperti topilmadan bir oy o'tib, avtohalokatga uchrab, vafot etdi. Bu voqeadan sal o'tib esa jasadni ko'chirish bilan shug'ullangan tog'dagi yo'l boshlovchi Kurt Frits qor ko'chkisining ostida qolib, halok bo'ldi. Muz ostidagi Etsini birinchi bo'lib ko'rib qolgan alpinist Xelmut Simon 2004 yilda o'sha hududning o'zida jarlikka qulab halok bo'lgan.

Simonning dafn etish marosimidan ozgina o'tib, guruh boshqaruvchisi Diter Varnike yurak hurujidan vafot etadi. 2005 yilning aprel oyida esa Etsi ustida tekshiruv olib borgan olimlarning rahbari – professor Konrad Shpindler insultdan vafot etadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida qarg'ish kichik bir janr darajasiga yetgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Faqat ular yetarli darajada to'planmagan, sochilib yotibdi. Muhabbat bor joyda alqash bo'lgani kabi, nafrat bor joyda qarg'ish ham bor. Qarg'ishni biz asosan la'natlash ma'nosida tushunamiz. Manbalar ham bu so'zning asosini shu mazmundagi ildizga olib borib taqaydi. "Turkiy tillar etimologik lug'ati"da ham bu so'z ildizidagi qar, kar, qara so'zlari "la'natlash, orqadan zarba berish, g'iybat, haqorat" ma'nolarida keladi deyilgan. Tilshunos M.Ryasyanen bu so'z ildizini mo'g'ul tiliga ulaydi.

Menimcha, qarg'ish so'zining ildizida qora so'zi bor. Chunki qadimdan "go'rni" qora o'rin, "fojiani" qora kun, "tolesizlikni" baxti qora kabi atashlar bizda bo'lgan. Hozirgacha barcha yomonliklarga qora so'zi aralashib keladi. "Turkiy tillar etimologik lug'ati"da faqat bir o'rinda qarg'ish so'zining ildizi "qoraga bo'yash" ma'nosida izohlangan. Xalqimizda Oq degani – olqish, qora degani – qarg'ish degan ko'hna maqol ham bor.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida "Qulog'im yolqibon el qarg'ishidin" degan misrani bitgan. Misradagi yolqi so'zi "batang qilmoq", "quloqni charchatmoq", tilimizdagi bir ibora bilan aytganda, "quloqni yeb qo'ymoq" ma'nosini anglatadi. "Devonu lug'otit turk"da qarg'a qarg'amoqni, qarg'aq esa qarg'ish, la'natlash va g'azabni anglatishi haqida aytilgan.

Insoniyat mavjud ekan, u nafaqat yaxshilik, balki yomonlik tilashning ham tushunchasi bilan yashab keladi. Biroq, oddiy g'azabdan aytilgan achchiq so'z bilan, butun bir avlodning taqdiriga ta'sir o'tkazishi aytiladigan kuch – qarg'ish o'rtasida qanday farq bor? Qarg'ish tushunchasi deyarli barcha madaniyatlarning eng qadimgi

qatlamlarida mavjud bo'lib, u nafaqat jazo vositasi, balki ba'zan ijtimoiy tartibni saqlashning sirli mexanizmi ham bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi Misr maqbaralarida toshga o'yib yozilgan tahdidlardan tortib, O'rta Osiyo folklorida uchraydigan "yomon ko'z" (nazar) ta'siriga bo'lgan ishonchgacha – qarg'ish har doim kishilarning ongi va qo'rquvlarida chuqur o'rin egallagan. Ushbu maqolada biz qarg'ishning tarixiy ildizlarini, turli xalqlarda namoyon bo'lish shakllarini va uning bugungi kundagi inson psixikasiga ta'sirini o'rganamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Eshqobil SHUKUR “Boboso‘z izidan” kitobidan,
2. Zamin.uz Qarg'ish: emotsiyaning kuchimi yoki kuchsizlikni,
3. Odam.uz Qiziqarli ma'lumot,